

## XALQ OG'ZAKI IJODI - BEBAHO BOYLIK

**Saidova Nodira**

Buxoro davlat universiteti Boshlang'ich ta'lim nazariyasi kafedrası

**Annotatsiya:** Bu maqola xalq og'zaki ijodi namunalaridan biri bo'lgan ertaklarga bag'ishlanadi. Ertaklarning bolalar tarbiyasida ahamiyati ulug'laniladi.

**Kalit so'zlar:** ertaklar, tarbiya, bolalar adabiyoti, pedagogika

## PEOPLE'S ORAL CREATIVITY - INVALUABLE WEALTH

**Saidova Nodira**

Bukhara State University, Department of Theory of Primary Education

**Annotation:** This article is dedicated to fairy tales, which are one of the examples of folklore. The importance of fairy tales in the upbringing of children is glorified.

**Keywords:** Fairy tales, education, children's literature, pedagogy

Adabiyot umuminsoniy qadriyatlarini o'zida mujassam etgan, insonning ruhiy va ma'naviy olamini, qalb ko'zini ravshanlantiruvchi tarbiya o'chog'i demakdir. Adabiyot fanini katta ildiz otgan daraxt misolida tasavvur etsak, xalq og'zaki ijodini esa ana o'sha zabardast daraxtning bir shoxasi deb faraz qilamiz. Shunday ekan, xalq og'zaki ijodi umumiy adabiyotning ajralmas bir qismi hisoblanadi. Adabiyotdagi har qanday asar zamirida bola tarbiyasi g'oyasi yotadi. Shuningdek, xalq og'zaki ijodi bolalarning yoshi, saviyasiga qarab muhim ta'lim va tarbiyaviy masalalarni o'z ichiga qamrab oladi. Bolalar uchun har qanday badiiy asar ularning yosh xususiyatlariga to'g'ri kelishidan tashqari bolalarga tushunarli va qiziqarli bo'lishi lozim. Bu o'rinda xalq og'zaki ijodi bizga ko'mak beradi. Xalq og'zaki ijodi namunalariga maqol, topishmoq, matal, ertak, mif, afsona, rivoyat, latifa, doston kabilar kiradi. Xalq og'zaki ijodi namunalarini maktab darsliklarida ham o'z ifodasini topgan. Masalan, 5-sinf adabiyot darsligidagi ERTAKLAR OLAMIDA mavzusi misolida olib qarasak:

Ertaklar ermak uchun o'qilmasligi, balki unda bolalarning ruhiy olami, ularning dunyoqarashida o'zining ijobiy ta'sirini o'tkazib, ularni ertak qahramonlaridagi fazilatlar ruhida tarbiyalash kabi masalalarni o'z oldiga qo'yadi.

Ma'lumki, ertaklar xalq og'zaki ijodining eng boy va rang-barang janri bo'lib, ularning an'anaviy muqaddimasi va xotimasini o'qishda ohang usullarini o'rganish ham yuksak darajada o'z samarasini beradi. Yosh kitobxon ertakdagi sarguzashtlar olamida yashaydi va har bir qahramonning ruhiyatini his qiladi. Yaxshilikning yovuzlik ustidan g'alaba qozonishi ularning komil inson bo'lishida poydevor bo'lib xizmat qiladi.

Maktab darsliklaridan joy olgan har bir ertakdan so'ng maqollar, hikmatli so'zlar keltirilganligining guvohi bo'lamiz. Bu o'sib kelayotgan yosh avlodni milliy qadriyatlar, milliy urf-odatlar ruhida tarbiyalanishiga poydevor bo'lib xizmat qiladi. Ayni o'rinda bu tarbiyaviy ta'sirni yetkazib berish pedagoglar zimmasiga anchagina mas'uliyatni yuklab qo'yadi. Adabiyot darslarida xalq og'zaki ijodi bilan bog'liq mavzularni o'tish jarayonida zamonaviy metodlardan foydalanish yaxshi samara beradi. Bunday innovatsion metodlarni tanlashda o'quvchilar yoshi va ular dunyoqarashini hisobga olmoq lozim. Masalan, "Davom ettir" metodi, "Zanjir" metodi, "Qiyoslash" metodi, "Toifalash" metodlari ayniqsa, ertaklar bilan bog'liq mavzularni o'tish jarayonida ko'zlangan natijani beradi.

Xalq og'zaki ijodining kichik janrlari sanalmish topishmoq, tez aytish va maqollar yuzasidan savol va topshiriqlar bolaning topqirligi, zukkoligi va albatta og'zaki nutqini rivojlanishida muhim hisoblanadi. Bir qarashda oddiy bo'lib ko'ringan "UCH OG'A - INI BOTIRLAR" ertagi yuzasidan ham bolalarni o'ylantirib qo'yadigan savollar yuqoridagi fikrimizning dalilidir:

- Ertakdagi botirlarning yoshlari nechada edi?
- Ertakda uch og'a-ini botirlarga kimning adovati bor edi?
- Siz kenja botirning o'rniga bo'lganingizda qanday yo'l tutgan bo'lardingiz?

Aynan shunga o'xshagan savollar bolalarni mushohada qilishga, o'ylashga majbur qiladi va bolaning e'tiborini o'ziga tortadi. Demak, xalq og'zaki ijodi yosh avlodga chinakam aqliy, axloqiy, estetik tarbiya berib, ularni jamiyatimizning munosib farzandlari bo'lib yetishtirishda yetakchi rol o'ynaydi.

Biz bilamizki, xalq og'zaki ijodi zamirida donishmand xalq yotadi. Shu bois xalq og'zaki ijodidagi har qanday janr mohiyatida yosh avlodning taqdiri ya'ni, ta'lim tarbiya masalalari turadi. Xalq tomonidan yaratilgan ko'plab ertaklarda bolalarning hayoti o'ziga xos tarzda ifodalanib beriladi. Jumladan, "Zumrad va Qimmat" ertagi ham bundan istisno emas. Zumrad obrazi xalq ardoqlagan va Zumrad qiyofa barcha o'zbek qizlarini ko'rishni orzu qilgan timsoldir. Zumrad chin ma'nodagi pokiza va samimiy qiz bo'lib Qimmat unga qancha ozor bersa-da, baribir uning barcha xarxashalari-yu injiqliklariga chidar, uning barcha yumushlarini bajaradi.

Ertakni o'qish davomida har qanday bola Zumradning fazilatlarini o'zida mujassam etishga, Qimmat tabiatidagi yomon illatlarni yo'qotishga harakat qiladi. Ertaklarning muhim xususiyatlaridan biri uning hamisha xalq hayoti bilan, ruhiy olami va urf - odatlari bilan bog'liqligi kishilarga ma'naviy hamroh bo'lib kelishidadir. Ertaklar insonning ma'naviy dunyosini boyitish barobarida yaxshilikning yomonlikka qarshi kurashida doimo g'olib keladi. Xususan, xalq ertaklarida axloqiy me'yorlar turli ijtimoiy masalalar chuqur aks ettiriladi. Ertaklarda romantik tasvir kuchli bo'ladi. Unda qahramon jabr-jaf o chekadi. Lekin oxirida baxtiyor bo'ladi. Yovuzlikka qarshi kurashda g'olib bo'ladi. Bunda xotima xalqning orzu - umidlaridan kelib chiqadi. Shu bois ertaklar xalqning o'z kuch - qudratini anglab olishga dalda va ishonch ruhini bag'ishlaydi.

Xulosa: Xalq og'zaki ijodi ajdodlarimizdan qolgan boylik bo'lib, u kelajak avlodni haqiqiy ma'noda komil va barkamol inson bo'lib yetishishida poydevor bo'lib xizmat qiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Afzalov M. "O'zbek xalq ertaklari haqida" Toshkent. Fan. 1964
2. Jalolov G'. "O'zbek ertaklar poetikasi" Toshkent. Fan. 1976